

# Uch avlod uchrashuvi



## Uch avlod uchrashuvi

Termiz shahar 5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida navbatdagi "Uch avlod uchrashuvi" bo'lib o'tdi. Tadbirda shahar Nuroniylar jamg'armasi Termiz shahar bo'limi raisi T.Berdiyev, mahalladagi faol nuroniylar, shahar Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi, jamoatchilik kengashi va "Keksalar maslahati" guruhi a'zolari, hamda o'quvchi yoshlar qatnashdi.

El-yurt ravnaqi yo'lida kamarbasta bo'lish lozimligi uch avlodga mansub yurtdoshlarimiz o'rtasida kechgan samimiy suhbatlar bosh mavzusiga aylandi. Yoshi ulug' otaxon va onaxonlarimiz hayoti va mehnat faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi, yoshlik davridagi o'ziga xos qiyinchiliklar, mehnat pallasidagi mashaqqatlar, Vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga qaratilgan qimmatli maslahat va tavsiyalarini berishdi.

Shuningdek, maktabning yosh ijodkorlari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.





Image not found or type unknown







Image not found or type unknown

